



Nutqiy rivojlanishida muammosi bor bolalarda lug'at boyligining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Turg'unov Mirjalol Mirzaxamdam o'g'li –
Farg'ona davlat universiteti
Inklyuziv ta'lim kafedrasida katta o'qituvchi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: mirjalolturgunov20@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-1957-155>

O'ktamova Mardona Elyor qizi –
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarda lug'at boyligining shakllanish qonuniyatlari va unga ta'sir etuvchi biologik hamda ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida nutq nuqsoniga ega bolalarning passiv va aktiv lug'ati o'rtasidagi tafovutlar, so'zlarni semantik (ma'noviy) idrok etish xususiyatlari o'rganildi. Olingan natijalar asosida ushbu toifadagi bolalarda so'z boyligini oshirish va korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish bo'yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: nutqiy rivojlanish, lug'at boyligi, passiv lug'at, aktiv lug'at, logopediya, korreksion omillar, semantika.

Факторы, влияющие на формирование словарного запаса у детей с нарушениями речевого развития

Аннотация. В данной статье проанализированы закономерности формирования словарного запаса у детей с нарушениями речевого развития, а также биологические и социально-психологические факторы, влияющие на данный процесс. В ходе исследования были изучены различия между пассивным и активным словарным запасом детей с речевыми нарушениями, а также особенности семантического восприятия слов. На основе полученных результатов разработаны эффективные рекомендации по обогащению словарного запаса и организации коррекционно-педагогической помощи детям данной категории.

Ключевые слова: речевое развитие, словарный запас, пассивный словарь, активный словарь, логопедия, коррекционные факторы, семантика.

Factors influencing vocabulary development in children with speech development disorders

Annotation. This article analyzes the patterns of vocabulary development in children with speech development disorders and examines the biological and socio-

psychological factors influencing this process. The study investigated the differences between passive and active vocabulary in children with speech impairments, as well as the peculiarities of their semantic perception of words. Based on the findings, effective recommendations were developed for enriching vocabulary and providing corrective-pedagogical support to children in this category.

Keywords: *speech development, vocabulary, passive vocabulary, active vocabulary, speech therapy, corrective factors, semantics.*

KIRISH

Nutq – inson psixikasining oliy funksiyalaridan biri boʻlib, bolaning ijtimoiylashuvi, taʼlim jarayoniga moslashuvi va atrof-muhitni anglashida markaziy oʻrin tutadi. Hayotning dastlabki yillarida lugʻat boyligi jadal surʼatlarda rivojlanadi va keyingi oʻquv hamda kommunikativ kompetensiyalarning poydevorini yaratadi. Shu bois lugʻat boyligining yetarli shakllanmasligi nafaqat nutq rivojlanishiga, balki bolaning kognitiv faoliyati, oʻqishga tayyorgarligi va ijtimoiy adaptatsiyasiga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Biroq turli etiobiologik va ijtimoiy omillar taʼsirida nutqiy rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalarda (nutq oʻsishi orqada qolgan ALR, umumiy nutqiy rivojlanmaganlik UNR, dizartriya, alaliya va boshqalar) lugʻat boyligining shakllanish jarayoni sezilarli darajada murakkablashadi. Logopedik va psixologik tadqiqotlar (L.S.Vigotskiy, R.E.Levina, T.B.Filicheva) ushbu toifadagi bolalarda lugʻat boyligi miqdor jihatidan ham (soʻzlar sonining kamligi), sifat jihatidan ham (soʻz maʼnosini yetarli tushunmaslik, ularni oʻrinli qoʻllay olmaslik) meʼyordagi tengdoshlaridan farq qilishini koʻrsatadi. Muammoning dolzarbligi nutqiy rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalar sonining ortib borishi va ularni maktab taʼlimiga samarali tayyorlash zarurati bilan belgilanadi. Lugʻat boyligini shakllantiruvchi biologik, neyrofiziologik, ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik determinantlarni aniqlash korreksion ishlarning mazmuni va samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, passiv lugʻatning faol lugʻatga oʻtishini taʼminlaydigan mexanizmlarni oʻrganish logopedik yordamning individual va differensial tashkil etilishiga xizmat qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi nutqiy rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalarda lugʻat boyligining shakllanishiga ijobiy va salbiy taʼsir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning oʻzaro bogʻliqligini tahlil qilish hamda korreksion-pedagogik ishlarni rejalashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nutqiy rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalarda lugʻat boyligining shakllanishi logopediya, maxsus pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni oʻrganishda koʻplab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, L.S.Vigotskiy nutq va tafakkurning oʻzaro bogʻliqligini asoslab berib, bolaning lugʻat boyligi uning bilish faoliyati rivojlanishining muhim koʻrsatkichi ekanligini taʼkidlagan. Olimning fikricha, soʻzning maʼnosini anglash va uni nutqda qoʻllash jarayoni bolaning intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bogʻliq.

R.E.Levina nutq nuqsonlariga ega bolalarning lugʻat tarkibini oʻrganib, ularda passiv va aktiv lugʻat oʻrtasida sezilarli tafovut mavjudligini aniqlagan. Muallifning tadqiqotlarida nutqida nuqsoni boʻlgan bolalar koʻplab soʻzlarni tushunsalar ham, ularni mustaqil ravishda nutqda qoʻllashda qiyinchiliklarga duch kelishi qayd etilgan. T.B.Filicheva va G.V.Chirkina esa umumiy nutqiy rivojlanmaganlikka ega bolalarda lugʻat boyligini shakllantirishning korreksion-pedagogik usullarini ishlab chiqqan hamda vizual, amaliy va oʻyin faoliyatiga asoslangan mashgʻulotlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Zamonaviy logopedik tadqiqotlarda nutqiy rivojlanish buzilishlarining kelib chiqishida biologik, neyrofiziologik va ijtimoiy omillarning oʻzaro bogʻliqligi alohida eʼtirof etiladi.

Tadqiqotchilar fonematik idrokning sust rivojlanganligi, markaziy asab tizimining funksional yetilmaganligi hamda nutqiy muhitning kambagʻalligi lugʻat boyligi shakllanishiga salbiy taʼsir koʻrsatishini taʼkidlaydilar. Shu bilan birga, oiladagi muloqot sifati, pedagogik yondashuvlar va logopedik yordamning oʻz vaqtida tashkil etilishi bolalarning nutqiy rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilashi mumkinligi ilmiy manbalarda qayd etilgan. Mazkur tadqiqot 2025–2026-yillar davomida maxsus maktabgacha taʼlim tashkilotlari hamda logopedik korreksiya markazlarida amalga oshirildi. Tadqiqotda 5–7 yoshdagi nutqiy rivojlanishida muammosi boʻlgan 40 nafar bola tajriba guruhi sifatida, nutqi meʼyorda rivojlanayotgan 20 nafar bola esa nazorat guruhi sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Anamnestik metod yordamida bolalarning tibbiy va pedagogik rivojlanish tarixi, prenatal va postnatal davr xususiyatlari oʻrganildi. Logopedik tekshiruv metodlari asosida bolalarning passiv va aktiv lugʻati, predmet, harakat va belgilarni nomlash qobiliyatlari baholandi. Semantik assotsiatsiya metodi orqali bolalarning soʻzlar oʻrtasidagi maʼnoviy bogʻlanishlarni idrok etish darajasi aniqlandi. Shuningdek, kuzatish, suhbat va diagnostik topshiriqlardan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchiligi matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilinib, foiz koʻrsatkichlari va qiyosiy tahlillar asosida umumlashtirildi. Tadqiqot metodlarining kompleks qoʻllanilishi nutqiy rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalarda lugʻat boyligining shakllanishiga taʼsir etuvchi omillarni har tomonlama oʻrganish hamda korreksion-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida nutqiy rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalar hamda nutqi meʼyorda rivojlanayotgan bolalarning lugʻat boyligi qiyosiy ravishda oʻrganildi. Logopedik tekshiruvlar, semantik assotsiatsiya metodikasi va kuzatish natijalari asosida olingan maʼlumotlar tahlil qilinib, lugʻat boyligining shakllanish darajasi aniqlandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Nutqida muammosi bor va nutqi meʼyordagi bolalarning lugʻat boyligi koʻrsatkichlari

Lugʻat komponentlari	Nutqi meʼyordagi bolalar Nazorat guruhi %	Nutqida muammosi bor bolalar Tajriba guruhi, %
Predmetlar nomini toʻgʻri qoʻllash	95	42
Harakat soʻzlarini (feʼllarni) qoʻllash	90	35
Sifat va belgilarni ifodalovchi soʻzlar	85	18
Abstrakt tushunchalarni anglash	75	8

Jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, tajriba guruhi bolalarining barcha koʻrsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada past natijalarni namoyon etdi. Predmetlar nomini toʻgʻri qoʻllash boʻyicha nazorat guruhida 95 foizlik natija qayd etilgan boʻlsa, tajriba guruhida bu koʻrsatkich 42 foizni tashkil etdi. Bu holat nutqiy rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalarning kundalik hayotda uchraydigan buyumlarni nomlash qobiliyati qisman shakllangan boʻlsa-da, lugʻat hajmi va mazmunining yetarli darajada rivojlanmaganligini koʻrsatadi. Harakatlarni ifodalovchi feʼllarni qoʻllash boʻyicha tajriba guruhi 35 foizlik natijani qayd etdi. Kuzatishlar davomida bolalar “yurmoq”, “oʻynamoq”, “yugurmoq” kabi sodda harakatlarni ifodalashda nisbatan yaxshi natija koʻrsatgan boʻlsalar-da, murakkab harakatlarni ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Bu esa feʼl lugʻatining cheklanganligi va grammatik tuzilmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Sifat va belgilarni ifodalovchi soʻzlar boʻyicha eng katta tafovut kuzatildi. Nazorat

guruhida ushbu ko‘rsatkich 85 foizni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba guruhida atigi 18 foiz natija qayd etildi. Tadqiqot davomida bolalar ko‘pincha “katta”, “kichik”, “yaxshi”, “yomon” kabi umumiy so‘zlardan foydalanib, predmetlarning rang, shakl, hajm va boshqa xususiyatlarini ifodalovchi so‘zlarni qo‘llashda qiynalishlari aniqlandi. Bu holat lug‘atning semantik jihatdan yetarlicha boy emasligini ko‘rsatadi. Abstrakt tushunchalarni anglash bo‘yicha eng past natija kuzatildi. Nazorat guruhida 75 foiz, tajriba guruhida esa atigi 8 foizlik ko‘rsatkich qayd etildi. Bolalar “mehr”, “do‘stlik”, “halollik”, “vaqt”, “vijdon” kabi mavhum tushunchalarni tushuntirish va ularning mazmunini izohlashda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishdi. Ushbu holat semantik tafakkurning rivojlanish darajasi yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, nutqiy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar kundalik hayotda ko‘p uchraydigan predmetlarni nomlay olsalar-da, ularning qismlarini ajratib ko‘rsatishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Xususan, tekshirilgan bolalarning 68 foizi kiyim-kechak va maishiy buyumlarning alohida qismlarini nomlashda xatolarga yo‘l qo‘ydi. Masalan, ko‘ylakning yoqasi, yengi yoki tugmasi kabi qismlarni to‘g‘ri nomlay olmagan holatlar kuzatildi. Semantik assotsiatsiya metodikasi orqali olingan natijalar ham bolalarning lug‘at birliklari o‘rtasidagi ma‘noviy bog‘lanishlarni shakllantirishda qiyinchiliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, “olma” so‘ziga nisbatan “meva”, “shirin”, “daraxt”, “qizil” kabi bog‘liq tushunchalarni aytish topshirig‘ida tajriba guruhi bolalarining aksariyati faqat bitta yoki ikkita bog‘lanishni keltira oldi. Nazorat guruhidagi bolalar esa bir so‘zga nisbatan bir nechta semantik bog‘lanishlarni erkin ifodalashdi.

Olingan natijalar ilmiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, ular L.S.Vigotskiy, R.E.Levina va T.B.Filichevalarning ilmiy qarashlarini tasdiqlashi aniqlandi. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida ham nutqiy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarda passiv lug‘atning aktiv lug‘atdan ustunligi, so‘z ma‘nolarini differensiallashtirishdagi qiyinchiliklar hamda semantik tizimning sust rivojlanishi qayd etilgan. Natijalar tahlili lug‘at boyligining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni ikki asosiy guruhga ajratish imkonini berdi. Birinchi guruh biologik va neyrofiziologik omillar bo‘lib, ularga markaziy asab tizimining funksional yetilmaganligi, fonematik eshitish qobiliyatining sustligi, artikulyatsion apparatdagi nuqsonlar hamda prenatal va postnatal rivojlanishdagi salbiy omillar kiradi. Ushbu omillar yangi so‘zlarni qabul qilish, eslab qolish va faol nutqda qo‘llash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchi guruhni ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillar tashkil etadi. Tadqiqot davomida oiladagi nutqiy muhit sifati, ota-onalarning bola bilan muloqot darajasi, kitob o‘qib berish, rivojlantiruvchi o‘yinlardan foydalanish va logopedik yordamning o‘z vaqtida tashkil etilishi lug‘at boyligining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Nutqiy muloqotga boy muhitda tarbiyalanayotgan bolalarda lug‘at boyligi ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lsa, elektron qurilmalar bilan haddan tashqari ko‘p vaqt o‘tkazadigan bolalarda nutqiy faollik va lug‘at hajmining pastligi kuzatildi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari nutqiy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarda lug‘at boyligining shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanligini tasdiqladi. Lug‘at boyligini rivojlantirishda logopedik mashg‘ulotlarni ko‘rgazmali vositalar, amaliy faoliyat, didaktik o‘yinlar hamda oilaviy hamkorlik bilan uyg‘unlashtirish yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Mazkur yondashuvlar bolalarning passiv lug‘atini faol lug‘atga aylantirish, semantik tizimni boyitish va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Nutqiy rivojlanishida muammosi bor bolalarda lug‘at boyligining shakllanishi murakkab va ko‘p komponentli jarayondir. Unga nafaqat neyrobiologik omillar (markaziy asab tizimining holati, fonematik idrok), balki mikrosotsium (oilaviy muhit, logopedik yordamning o‘z vaqtida berilishi) ham hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu bolalarda passiv lug‘atning faol lug‘atga o‘tishi qiyin kechadi. Shu sababli, korreksion ishlarni erta yoshdan boshlash, mashg‘ulotlarni ko‘rgazmali va amaliy faoliyat bilan bog‘lash hamda oilaviy nutq

madaniyatini yuksaltirish bolaning ijtimoiy adaptatsiyasini va lugʻat boyligi oʻsishini taʼminlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2015. – 368 b.
2. Levina R.E. Nutq nuqsonlari boʻlgan bolalarni tarbiyalash va oʻqitish asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 254 b.
3. Filicheva T.B., Chirkina G.V. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq umumiy rivojlanmaganligini bartaraf etish. – Moskva: Prosveshcheniye, 2022. – 312 b.
4. Lalaeva R.I. Logopediya asoslari. – Sankt-Peterburg: Piter, 2021. – 286 b.
5. Volkova L.S. Logopediya: Oliy taʼlim muassasalari uchun darslik. – Moskva: VLADOS, 2020. – 703 b.
6. Jukova N.S., Mastjukova E.M., Filicheva T.B. Nutqning umumiy rivojlanmaganligini yengish. – Moskva: Akademiya, 2019. – 224 b.
7. Axutina T.V. Neyropsixologiya asoslari va bolalar nutqining rivojlanishi. – Moskva: Akademiya, 2018. – 296 b.
8. Lubovskiy V.I. Maxsus psixologiya. – Moskva: Akademiya, 2020. – 431 b.
9. Murodova Sh.A. Logopediya va nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2024. – 240 b.
10. Poʻlatova D.A. Logopedik korreksiya metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2023. – 198 b.
11. Xaydarova M.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 216 b.
12. Nurmatova M.R. Inklyuziv taʼlimda logopedik yordamni tashkil etish. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2023. – 184 b.
13. Elkonin D.B. Bola psixologiyasi va nutq rivoji. – Moskva: Akademiya, 2019. – 384 b.
14. Leontyev A.A. Nutq faoliyati asoslari. – Moskva: Smysl, 2018. – 287 b.
15. Bozhovich L.I. Shaxs rivojlanishi va bolalar psixologiyasi. – Moskva: Prosveshcheniye, 2017. – 352 b.
16. Turgʻunov M.Oʻ. Nutqida nuqsoni boʻlgan bolalar bilan logopedik ishlarni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari // Taʼlim va innovatsiyalar. – 2024. – №4. – B. 45–50.
17. Karimova V.M. Bolalar nutqining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2021. – 176 b.
18. Shomahmudova R.Sh. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Fan, 2020. – 320 b.